




2
0
2
4

No 1



Muhandislik va Iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnologik, fan va ta'limga oid
ilmiy-amaliy jurnal



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



Muhandislik va Iqtisodiyot

Elektron nashr.
101 sahifa. 2-fevral, 2024-yil.

ijtimoy-iqtisodiy, innovatsion texnologik, fan
va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari doktori, PhD

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik

Sharipov Kongratbay Avazimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Eshov Mansur Po'latovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Imratova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ixamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

- Toshkent shahridagi G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
- Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
- Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
- Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
- Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
- Toshkent davlat transport universiteti
- Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
- Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
- Jizzax politexnika instituti

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali

26.06.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan №S-5669245 reyestr
raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan
o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310



MUNDARIJA

Tijorat banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo'llari	4
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Tijorat banklarida xizmat ko'rsatish sohasini kreditlash mexanizmining ilmiy nazariy asoslari.....	9
Isakov Janabay Yakipbayevich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi.....	15
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Нормативно-правовое регулирование национальной системы противодействия легализации доходов, включая аспекты теневой экономики, и функции уполномоченных органов в данной области	20
Кошанов Абдимурат	
Banklarning kapitallashish darajasini oshirish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar	25
Utambetov Rauaj Abdijamilovich	
Эффективности стратегий финансирования в стимулировании инновационных проектов в рамках цифровых экосистем	29
Жубанова Байрамгул Аймуратовна	
Audit of Ethics in Public Sector Organisations.....	36
Urdabaev Djarylkap Ermekebaevich	
Экономическая значимость кредитования на основе залогового обеспечения коммерческих банков..	43
Мамбетназарова Айзада Махсетовна	
Эффективное использование человеческого капитала с учетом демографического потенциала.....	46
Тула Нодирбек Баходир угли	
Формирование финансовых ресурсов предприятиями.....	51
Якупбаев Кууатбай Жолдасбаевич	
Davlat korxonalarini innovatsion menejment tamoyillari asosida transformatsiya qilishning ilmiy nazariy asoslari	55
Shaniyazova Zamira Oralbayevna	
Kam ta'minlangan aholi qatlamini tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilishda kreditlashning o'rni	59
Karimov Behzodjon Ilhomovich	
Mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalarini rivojlantirishda chet el davlatlar tajribasi.....	66
Abdurazakova Nargiza Rixsibayevna, Mavlyanov Umidjon Sherali o'g'li, Alinazarov Xayitali Xusanali o'g'li	
Tijorat bank xizmat turlarini islomiy bank xizmatlari orqali rivojlantirish istiqbollari	71
Bayjanova Gozsal Sarsengaliyevna	
Hududlarda qurilish sohasini rivojlantirishda tijorat banklarining faolligini oshirish yo'llari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida).....	77
Sultanov Baxram Begdullayevich	
Tijorat banklari tomonidan korxonalarni kreditlashning dolzarb muammolari va ularni hal qilish yo'llari	82
Sultanov Baxram Begdullayevich	
Chiqindi maxsulotlarini qayta ishlash tizimining zamonaviy texnologiyalar holati va tahlili.....	86
Sadinov Aziz Ziyadullayevich	
Auditorlik tekshiruvi natijalarini hujjatlashtirish xususiyatlari	91
Meliev Isroil Ismoilovich	
Moliyaviy vositalar orqali erkin iqtisodiy zonalarini rivojlantirishning konseptual yondashuvlari.....	97
Quziev Ravshan Ramazanovich	



MOLIYAVIY VOSITALAR ORQALI ERKIN IQTISODIY ZONALARNI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL YONDASHUVLARI

Quziev Ravshan Ramazanovich

O'zbekiston Respublikasi
Bank-moliya akademiyasi
"Moliya" kafedrası dotsenti., PhD.

Annotatsiya: Maqolada erkin iqtisodiy zonalarni moliyalashtirishda zamonaviy moliyaviy vositalarning strategik ahamiyati ilmiy-nazariy asosda tahlil qilingan. Xorijiy rivojlangan davlatlar tajribasi asosida moliyaviy infratuzilmani shakllantirish yondashuvlari o'rganilgan hamda O'zbekiston sharoitida erkin iqtisodiy zonalar uchun kompleks moliyalashtirish modelini taklif etish zarurati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: erkin iqtisodiy zona, moliyaviy vosita, strategik moliyalashtirish, investitsiya muhiti, iqtisodiy barqarorlik.

Abstract: The article provides a scientific and theoretical justification of the strategic importance of modern financial instruments in financing special economic zones. Based on the experience of developed countries, approaches to building financial infrastructure are analyzed, and the need to propose an integrated financing model for special economic zones in the context of Uzbekistan is substantiated.

Keywords: special economic zone, financial instrument, strategic financing, investment environment, economic sustainability.

Аннотация: В статье научно-теоретически обосновано стратегическое значение современных финансовых инструментов в финансировании свободных экономических зон. На основе опыта развитых зарубежных стран проанализированы подходы к формированию финансовой инфраструктуры и обоснована необходимость разработки комплексной модели финансирования свободных экономических зон в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: свободная экономическая зона, финансовый инструмент, стратегическое финансирование, инвестиционная среда, экономическая устойчивость.

KIRISH

Raqobatbardosh milliy iqtisodiyotni shakllantirish va innovatsion taraqqiyot asoslarini mustahkamlashda erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) strategik makroiqtisodiy vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Ular xorijiy kapital oqimini jalb qilish, texnologik transformatsiya, ishlab chiqarishning klasterlashuvi va eksport orientatsiyalashgan sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi kompleks infratuzilmaviy va institutsional platformadir. Zamonaviy global iqtisodiyotda EIZlar faqatgina soliq-bojxona imtiyozlari orqali emas, balki keng qamrovli moliyaviy arxitektura va investitsiyaviy ekotizim yordamida shakllantirilayotgan strategik hududiy mexanizmlarga aylangan.

Xalqaro tajribalar (Xitoydagi Shenzhen zonasi, Koreya Respublikasidagi Incheon erkin iqtisodiy zonasi, Dubaydagi JAFZA) shuni ko'rsatmoqdaki, EIZlarning muvaffaqiyatli ishlashi asosan moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish modellarini shakllantirish, subnatsional obligatsiyalar chiqarish va kafolatlangan kredit liniyalarini jalb etish orqali ta'minlanadi. Bunday yondashuvlar EIZlarni passiv fiskal-huquqiy makondan faol investitsion maydonga aylantiradi.

O'zbekiston Respublikasida 2017-yildan boshlab EIZlar faoliyatini faollashtirish bo'yicha qator huquqiy va institutsional choralar ko'rilgan bo'lsa-da, ularning moliyaviy strategiyasi haligacha birlamchi darajada qolmoqda. Jumladan, kapital bozorlaridan foydalanish mexanizmlarining yetarlicha rivojlanmagani, xususiy sektor uchun moliyaviy inklyuziya darajasining pastligi, davlat kafolatli moliyalashtirish vositalarining uzluksizligi ta'minlanmagani EIZlarning transformatsion salohiyatini chegaralab qo'ymoqda. Eng muhim jihati shundaki, EIZlar uchun yagona moliyaviy strategiya ishlab chiqilmagan bo'lib, har bir zona o'z infratuzilmaviy loyihalarini "ad-hoc" asosda va asosan byudjet mablag'lari yoki cheklangan xorijiy grantlar yordamida moliyalashtirishga urinmoqda.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) iqtisodiy siyosatning dinamik vositasi sifatida dunyo bo'yicha keng qo'llanilayotgan modeldir. Ularning muvaffaqiyatli faoliyati ko'plab omillarga bog'liq bo'lsa-da, moliyaviy vositalarning strukturaviy roli olimlar e'tiborini tobora ko'proq tortmoqda. Hozirgi vaqtda EIZlarning moliyaviy arxitekturasini muayyan yondashuvlar va nazariy maktablar doirasida o'rganilib kelinmoqda.

Birinchi yondashuv klassik investitsiya-muhit modeli bo'lib, bu modelda EIZlarning muvaffaqiyati asosan soliq imtiyozlari, bojxona yengilliklari va mehnat resurslariga arzon kirish imkoniyati bilan bog'lanadi [1]. Lekin, bu model bugungi zamonaviy EIZlar uchun yetarli emasligini ko'rsatmoqda. Masalan, Thomas Farole EIZlarning uzoq muddatli samaradorligi faqat fiskal rag'batlantirish bilan emas, balki ilg'or moliyalashtirish strategiyalari, davlat-xususiy sheriklik (PPP), hududiy moliya bozorlari bilan integratsiyalashgan tizim orqali ta'minlanishini ta'kidlaydi [2].

Ikkinchi yondashuv institutsional moliyaviy yondashuv bo'lib, bu doirada EIZlar uchun maxsus moliyaviy infratuzilma masalan, sanoat infratuzilmasiga yo'naltirilgan obligatsiyalar, moliyaviy kafolat mexanizmlari, investitsion banklar bilan hamkorlik va eksport-kredit sug'urtasi tizimlari mavjud bo'lishi kerakligi ilmiy asoslanadi [3]. Daniya, Singapur va Xitoy tajribasi shuni ko'rsatadiki, EIZlar uchun davlat tomonidan yaratilgan moliyaviy muhit, nafaqat tashqi investitsiyalarni jalb qilishga, balki mahalliy tadbirkorlikni ham faollashtirishga xizmat qiladi [4].

Uchinchi yondashuv tarmoqlararo moliyaviy integratsiya modeli bo'lib, bu yondashuvda EIZlar boshqa hududiy rivojlanish dasturlari (texnoparklar, eksportni qo'llab-quvvatlash agentliklari, infratuzilmaviy fondlar) bilan uzviy integratsiyada bo'lishi talab etiladi. Ushbu model Yevropa Ittifoqining yangi a'zolari bo'lgan davlatlar tajribasida samarali sinovdan o'tgan bo'lib, Polsha va Vengriya EIZlarida strukturaviy fondlar bilan moliyalashtirish amaliyoti yuqori darajada tashkil etilgan [5].

1-jadval. Erkin iqtisodiy hududlarni moliyaviy vositalar orqali rivojlantirish bo'yicha asosiy ilmiy tadqiqotlar

№	Muallif (yili)	Yondashuv va tadqiqot doirasi	Asosiy ilmiy natijalar
1	Lars Moberg (2017)	Erkin hududlarning muvaffaqiyati siyosiy barqarorlik va moliyaviy boshqaruv tizimi bilan uzviy bog'liqligini asoslaydi.	Soliq imtiyozlari yakka holda yetarli emas, moliyaviy vositalar davlat boshqaruvi va qonunchilik bilan uyg'unlashishi kerak.
2	Samer Frik va Arturo Rodriges-Pose (2023)	Turli davlatlardagi erkin hududlar misolida investor qarorlariga ta'sir qiluvchi omillarni, xususan, moliyaviy yengilliklar rolini aniqlaydi.	Moliyaviy yordam, imtiyozli kreditlar va subsidiyalar investorlar uchun asosiy omil hisoblanadi.
3	Kojo Aka, Reks Osei va Bismark Kusi (2024)	G'arbiy Afrikadagi erkin hududlar misolida moliyaviy yordam olgan korxonalar iqtisodiy samaradorligining oshganini kuzatadi.	Moliyaviy resurslardan foydalangan korxonalarning foyda ko'rsatkichi va ishlab chiqarish hajmi ortgani aniqlangan.
4	Anxur Aggarval (2023)	Hindiston va unga qo'shni davlatlar misolida moliyaviy va soliq yengilliklar uyg'unlashgan holda qanday natija bergani baholangan.	Moliyaviy va fiskal rag'batlar birgalikda qo'llanilganda erkin hududlar investitsiyaviy jozibadorlikni oshirgan.

Manba: muallif tomonidan tayyorlandi

Erkin iqtisodiy hududlarni rivojlantirishda moliyaviy vositalarning o'rni tobora ortib bormoqda. Jadvalda keltirilgan ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu hududlarning samaradorligi nafaqat soliq yengilliklari, balki moliyaviy infratuzilma, strategik rejalashtirish va investitsiya xavfini kamaytiruvchi vositalar mavjudligiga ham bog'liq.

Ko'plab tadqiqotlarda moliyaviy vositalar imtiyozli kreditlar, grantlar, davlat kafolatlari, infratuzilmaviy obligatsiyalar investorlar va mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun asosiy rag'batlantiruvchi omillar sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, firmalarning moliyaviy resurslardan foydalanish darajasi ularning rentabelligi, raqobatbardoshligi va ishlab chiqarish hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada moliyaviy strategiyalar siyosiy va huquqiy barqarorlik bilan uyg'unlashtirish, erkin hududlar uzoq muddatli va barqaror investitsiya markazlariga aylanishini tahlil qilish, xalqaro tajriba, moliyaviy vositalarning samarali qo'llanilishi, erkin hududlar faoliyatini EIZlarli darajada kuchaytirish, investitsiya oqimini oshirish va hududiy iqtisodiy faollikni rag'batlantirish masalalari muhokama qilingan.



TAHLIL VA NATIJALAR

Erkin iqtisodiy hududlarning barqaror rivojlanishini ta'minlashda moliyaviy vositalarning tutgan o'rni tobora muhimlashib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, EIZlar samaradorligi nafaqat soliq yengilliklariga, balki aniq maqsadli moliyaviy mexanizmlarni qo'llashga bevosita bog'liqdir.

2-jadval. Rivojlangan davlatlarda erkin iqtisodiy zonalar moliyalashtirishda qo'llanilgan asosiy moliyaviy mexanizmlar

Davlat	Moliyaviy strategiyaning asosiy yo'nalishlari	Qo'llanilgan moliyaviy vositalar va ularning funksional xususiyatlari
Germaniya	Innovatsion infratuzilmani moliyalashtirish va sanoat ko'chirish	Davlat kafolatlari, infratuzilma obligatsiyalari, texnopark grantlari, texnologik modernizatsiya uchun subsidiyalari
Janubiy Koreya	Sanoat klasterlari va EIZlar o'rtasida moliyaviy integratsiyani kuchaytirish	Maxsus zonalar uchun kredit liniyalari, sanoat rivojiga mo'ljallangan fondlar, texnika yangilash uchun foizsiz qarzar
Singapur	EIZlarda xalqaro kompaniyalarni jalb qilish va xizmatlar eksportini rag'batlantirish	Moliyaviy inklyuziya dasturlari, startaplar uchun sarmoya fondlari, soliq to'lovlarini kechiktirish mexanizmlari
Yaponiya	Innovatsion ishlab chiqarish va ekologik barqarorlikni ta'minlash	Yashil obligatsiyalar, ekologik modernizatsiya kreditlari, davlat-xususiy sheriklik asosidagi moliyalashtirish loyihalari
AQSH	Erkin zonalarda innovatsion ekotizimni rivojlantirish	Innovatsion korxonalarni moliyaviy sug'urtalash, maxsus investitsion agentliklar orqali grantlar va boshlang'ich sarmoya yo'naltirish

Manba: muallif tomonidan tayyorlandi

Yuqoridagi tahlildan ko'rinadiki, rivojlangan davlatlar erkin iqtisodiy zonalar moliyalashtirishda bir xil yondashuvga emas, balki o'zining iqtisodiy modeli va ixtisoslashuviga moslashtirilgan moliyaviy strategiyalarga tayanadi. Germaniya kabi sanoati rivojlangan davlatlar texnologik infratuzilmani rivojlantirishga yo'naltirilgan subsidiyalarni qo'llasa, Singapur va AQSH moliyaviy vositalarni innovatsion loyihalarni jalb etish vositasi sifatida ishlatadi. Ayniqsa, davlat-xususiy sheriklik asosidagi moliyalashtirish modeli Yaponiya va Janubiy Koreya tajribasida muhim o'rin tutadi. Bu esa EIZlarni barqaror, texnologik jihatdan ilg'or va ekologik muvozanatli hududga aylantirish imkonini beradi.

3-jadval. Rivojlangan davlatlar tajribasida moliyaviy vositalarning EIZlarga ta'sir mexanizmlari

Davlat	EIZlar faoliyatiga moliyaviy vositalarning asosiy ta'sir yo'nalishlari	Erishilgan umumiy natijalar
Germaniya	Yirik sanoat tarmoqlari uchun investitsiya xavfini kamaytirish	Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning texnologik modernizatsiyasi va mahsulot eksportining barqarorlashuvi
Janubiy Koreya	Kichik va o'rta korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali klasterlashuv	Mahalliy sanoatning EIZlar atrofida guruhlanishi, ichki kooperatsiyaning kengayishi
Singapur	Soliq va moliyaviy yengilliklar bilan xalqaro kompaniyalarni jalb qilish	Xalqaro biznesning EIZlarda joylashuvi, xizmatlar eksportining tez sur'atlarda o'sishi
Yaponiya	Ekologik jihatdan barqaror moliyalashtirish vositalarini keng joriy etish	Yashil iqtisodiyotga mos infratuzilmalar yaratilishi, ekologik normalarga javob beradigan ishlab chiqarish
AQSH	Innovatsion startaplarni davlat moliyaviy resurslari bilan rag'batlantirish	Raqobatbardosh texnologik klasterlar shakllanishi, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushining ortishi

Manba: muallif tomonidan tayyorlandi

Mazkur 3-jadvalda moliyaviy vositalarning erkin hududlar faoliyatiga ko'rsatgan ta'siri sifat ko'rinishida aks ettirilgan. Germaniyada moliyaviy vositalar eksportga yo'naltirilgan sanoatni modernizatsiya qilishga xizmat qilsa, Janubiy Koreyada esa ular mahalliy ishlab chiqaruvchilarni klaster asosida birlashtirishga xizmat qilgan. Singapur moliyaviy vositalar orqali xalqaro kompaniyalarni jalb etish bo'yicha aniq natijalarga erishgan bo'lsa, Yaponiyada yashil moliyalashtirish modeli EIZlar ekologik barqarorligining asosi sifatida qaralgan. AQSHda esa startaplar uchun ajratilgan moliyaviy qo'llab-quvvatlash innovatsion klasterlarning shakllanishiga turtki bo'lgan.

Tadqiqot natijalari asosida shuni ta'kidlash lozimki, erkin iqtisodiy hududlarni moliyaviy vositalar asosida rivojlantirish strategiyasi respublika miqyosidagi investitsion siyosatning muhim va ajralmas tarkibiy qismiga aylanishi lozim. Avvalo, erkin hududlar uchun yagona moliyalashtirish konsepsiyasini ishlab chiqish talab etiladi. Ushbu konsepsiya an'anaviy soliq-bujxona imtiyozlari bilan cheklanib qolmasdan, zamonaviy moliyaviy mexanizmlar loyiha asosidagi moliyalashtirish, maxsus sanoat obligatsiyalari, davlat kafolatli investitsiyalar, texnologik modernizatsiya grantlari va ekologik moliyalashtirish vositalari (masalan, yashil obligatsiyalar) majmuini qamrab olishi kerak. Shuningdek, EIZlarda moliyaviy inklyuziyani ta'minlash uchun hududiy bank sektorining transformatsiyasi va investitsiya institutlari bilan integratsiyalashuv mexanizmlari ishlab chiqilishi muhimdir. Bunda moliyaviy vositalar nafaqat kapital oqimini rag'batlantiruvchi vosita, balki resurslar samaradorligini oshiruvchi va korxonalarning texnologik konvergentsiyasini ta'minlovchi omil sifatida qaralishi lozim. Xususan, EIZlarda kichik va o'rta biznes subyektlarini moliyalashtirish uchun sektorlararo fondlar, innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlovchi davlat-xususiy sheriklik dasturlari, past foizli uzoq muddatli kreditlar, investitsiya kafolatlari va xavfni taqsimlash mexanizmlari faol joriy etilishi zarur.

XULOSAVA TAKLIFLAR

Xalqaro amaliyot ko'rsatganidek, moliyaviy vositalar EIZlar raqobatbardoshligini ta'minlashda oddiy qo'llab-quvvatlovchi element emas, balki hududiy iqtisodiy boshqaruvning strategik asosi sifatida namoyon bo'ladi. Shu munosabat bilan, O'zbekiston erkin hududlari faoliyatini moliyalashtirishda hozirgi fragmentar yondashuv o'rniga, kompleks va funksional asoslangan moliyaviy arxitektura yaratilishi zarur. Bu nafaqat xorijiy sarmoyalarni keng miqyosda jalb qilishga, balki milliy sanoatning texnologik yangilanishiga, eksport salohiyatining oshishiga va ekologik barqaror infratuzilmaning shakllanishiga xizmat qiladi. Mazkur takliflarni amalga oshirish orqali O'zbekiston erkin iqtisodiy hududlarini global iqtisodiy tizimga integratsiya qiluvchi moliyaviy modelni shakllantirishi va milliy rivojlanish strategiyasida EIZlar rolini tubdan kuchaytirishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. World Bank. (2008). Special Economic Zones: Performance, Lessons Learned, and Implications for Zone Development. Washington DC: The World Bank.
2. Farole, T. (2011). Special Economic Zones in Africa: Comparing Performance and Learning from Global Experience. World Bank Publications.
3. Zeng, D. Z. (2015). Global Experiences with Special Economic Zones: Focus on China and Africa. World Bank Policy Research Working Paper.
4. UNIDO. (2019). Industrial Development Report 2019: Demand for Manufacturing. Vienna: United Nations Industrial Development Organization.
5. European Commission. (2016). Evaluation of EU Structural Funds Support to Special Economic Zones in Poland and Hungary. Brussels.
6. Moberg, L. (2017). The political economy of special economic zones. *Journal of Institutional Economics*, 13(3), 429–452.
7. Frick, S. A., & Rodríguez-Pose, A. (2023). What draws investment to special economic zones? Evidence from developing countries. *Regional Studies*, 57(2), 187–201.
8. Ackah, C. G., Osei, R. D., & Kusi, B. A. (2024). Special economic zone dynamics and firm performance: Evidence from an emerging economy. *Managerial and Decision Economics*, 45(1), 33–45.
9. Aggarwal, A. (2023). How special are Special Economic Zones? Evidence from South Asia. *The World Economy*, 46(8), 2447–2555.

Muhandislik va Iqtisodiyot

ijtimoy-iqtisodiy, innovatsion texnologik, fan va ta'limga
oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy

